

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:
№ BD-60840200-2.10
«29» 08 2025 yil



“TASDIQLAYMAN”
O'quv ishlari bo'yicha
prorektor q.x.f.d., professor
A.A. Elmurodov
«29» 08 2025 yil

**VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI
FANININGI ISHCHI O'QUV DASTURI (SILLABUSI)
(Sirtqi ta'lim 5-bosqich talabalari uchun)**

Bilim sohasi: 800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va
veterinariya
Ta'lim sohasi: 840000 – Veterinariya
Ta'lim yo'nalishi: 60840200-Veterinariya farmatsevtirasi.

Samarqand – 2025

Fanning ishchi o'quv dasturi (sillabusi) 2021 yilda tasdiqlangan o'quv reja va fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

F.B.Ibragimov – SamDVMChBU, “Veterinariya sanitariya ekspertizasi” kafedrasini mudiri, dotsent.

U.I.Rasulov – SamDVMChBU, “Veterinariya sanitariya ekspertizasi” kafedrasini dotsenti, vet.fan.doktori.


D.R.Nasimova–“Veterinariya sanitariya ekspertizasi” kafedrasini assistenti.

Taqrizchilar:


Sh.X.Chorshanbiyev–Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Zootexnika, veterinariya va ipakchilik kafedrasini v.b. dotsenti, v.f.f.d;

Sh.A.Abdurasulov–Toshkent davlat agrar universiteti “Umumiy zootexnika va veterinariya” kafedrasini dotsenti, v.f.d.


Fanning ishchi o'quv dasturi “Veterinariya sanitariya ekspertiza” kafedrasining 2025 yil “22” 08 kuni “1” -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:  **F.B.Ibragimov**

Fanning ishchi o'quv dasturi (sillabusi) “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” fakulteti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2025 yil 22 08 kuni 1 -sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi:  **F.E.Kurbanov**

Kelishildi:

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:  **Sh.X.Qurbanov**

Fan Sillabusi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

Fan to'g'risida ma'lumot

Fan shifri: VSE2704

Fan nomi: Veterinariya sanitariya ekspertizasi

Semestr/yil: 10-semestr/2025-2026 o'quv yili

Kafedra: Veterinariya sanitariya ekspertiza

Soatlar/kreditlar: 4,0 ECTS (20 auditoriya soati, 100 soat mustaqil ta'lim)

Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ta'lim	Jami
6	14	100	120

Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:

Auditoriya vaqti: dars jadvaliga asosan

Talablar:

Fan uchun mas'ul kafedra: Veterinariya sanitariya ekspertiza

Instruktor to'g'risida ma'lumot: D.R.Nasimova

Kafedra joylashgan joyi: SamDVMChBU, 6-o'quv binosi, 664-xona

Telefon: +99891-555-06-95 ish telefoni; mobil: +99891-555-06-95

E.mail. dildoranasimova0@gmail.com Ish vaqti: Uchrashuvga ko'ra

I. Fanni o'qitishdan maqsad – “Veterinariya sanitariya ekspertizasi” fanining o'qitishdan maqsad talabalarga odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan, asosan odamlar sog'lig'iga xavf tug'diradigan yuqumli va yuqumsiz hamda invazion kasalliklarni shuningdek, chorvachilik mahsulotlari orqali hayvonlar orasida tarqaladigan kasalliklarning oldini olish va har xil choralar ko'rishni veterinariya sanitariya jixatidan nazorat qiladi hamda veterinariya mutaxassislarini tayyorlashda fundamental tushunchalarni berish. Chorvachilik va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirish yo'nalishiga mos fan bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

II. Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, qishloq xo'jalik hayvonlari mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat korxonalarini (go'sht ishlab chiqarish korxonalari, parranda kushxonalari, so'yish punktlari va boshqalar) tashkil qilish, quriladigan joylarni tanlashga doir sanitariya talablarini ishlab chiqish, chorva mollari va parrandalardan olinadigan go'sht mahsulotlarini sifati va xavfsizligini aniqlash, turli go'shtlarni morfologiyasi va kimyoviy tarkibiy qismlarini o'rganish, har xil yuqumli yuqumsiz va invazion kasalliklar sodir bo'lganda go'shtdan va ichki organlardan foydalanish usullarini ishlab chiqish rioya qilishni nazorat qilish, sut va sut mahsulotlarini sifatini aniqlash usullarini takomillashtirish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.

III. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- hayvonlar va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasi hamda uning insonlar sog'lig'ini muhofaza qilishdagi ahamiyati to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi*;

- veterinariya-sanitariya ekspertizasi natijasini hujjatlashtirishni, go'sht va go'sht mahsulotlari hamda sut va sut mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi, talaba go'sht, sut, baliq, asal va o'simlik mahsulotlarining sanitariya holatini baholash; dehqon bozorlarida turli mahsulotlarning sanitariya holatini baholash va iste'molga ruxsat etish *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

- oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish, chorvachilik va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini konservalash, dudlash va boshqa texnologiyalarni, go'sht, sut mahsulotlarining sanitariya holatini baholash *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

IV. O'qitish usullari:

Fanni o'qitish jarayonida zamonaviy uslublardan foydalanish, sohadagi muammolarni ta'limning ommaviy shakllari bilan bog'lab, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlab borish lozim. O'quv materiallarini talabalar tomonidan unumli o'zlashtirish uchun ko'rgazmali qurollar o'qitishning texnik vositalari, oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirishning yangi usullarini o'rgatish, talaba bilimini baholash tizimini joriy etish. Ma'ruza mashg'ulotlarida ilg'or pedagogik texnologiyalar foydalaniladi.

"Veterinariya sanitariya ekspertizasi" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Tizimli yondoshuv.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.

Dialogik yondoshuv.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.

Muammoli ta'lim.

V. Fanning tarkibiy tuzilishi:

5.1. "Veterinariya sanitariya ekspertizasi" fanidan rejalashtirilgan ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

Ma'ruza mashg'ulotlarining:			
№	mavzulari	rejasi	Soat
1-modul. Go'sht korxonalari va hayvonlar tanasini qayta ishlash texnologiyasi			
1.1	Go'sht korxonalari va so'yiladigan hayvonlarni dastlabki qayta ishlashning asosiy texnologiyasi va gigiyenasi	1.1.1. Hayvonlarni qayta ishlash korxonalari va ularni turlari. Go'sht korxonasining turlari. Go'sht korxonasi, qushxona va so'yish punktlari to'g'risida umumiy tushuncha. 1.1.2. Go'sht korxonasidagi sexlarning bir-	2

Ijodiy fikrlay olish;

Mustaqil mushohada yurita olish;

Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

Mohiyatini tushunish;

Bilish, aytib berish;

Tasavvurga ega bo'lish;

4 (yaxshi) baho:

Mustaqil mushohada yurita olish;

Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

Mohiyatini tushunish;

Bilish, aytib berish;

Tasavvurga ega bo'lish;

3 (qoniqarli) baho;

Mohiyatini tushunish;

Bilish, aytib berish;

Tasavvurga ega bo'lish;

2 (qoniqarsiz) baho:

Dasturni o'zlashtirmaganlik;

Fanning mohiyatini bilmaslik;

Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;

Mustaqil fikrlay olmaslik.

VII. Adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. F.Ibragimov Veterinariya sanitariya ekspertizasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2023.- 196 bet.
2. U.I. Rasulov, F.B.Ibragimov, Z.I.Ilyasov Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi nazorati. O'quv qo'llanma. Toshkent 2023-176 bet.
- 3.V.M.Do'skulov, F.B.Ibragimov.,O.E.Achilov., X.A.Kuvvatov, F.M. Ibragimov. Baliq mahsulotlarining veterinariya sanitariya ekspertizasi. O'quv qo'llanma. "ACCES-SERVICE". Samarqand, 2024. – 171 bet.
4. George Fleming "A manual of veterinary sanitary science and police" Wentworth Press 2016.-616 pages.
5. A.B.Смирнов. Практикум по ветеринарно-санитарной экспертизе. учебник. Санкт-Петербург ГИОРД, 2015.-320 с

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
7. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.
11. T.E.Ostonaqulov va boshqalar. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining veterinariya-sanitariya ekspertizasi, qayta ishlash texnologiyasi, gigiyenasi va standartizatsiyasi. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2013 yil.

Axborot manbaalari

12. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
13. www.Ziynet.uz.
14. www.veterinariya.medsinasi.uz
15. www.veterinary@actavis.ru

VIII. Baholash

Talabalarning fanlarni o'zlashtirishi 5 ballik tizimda baholanadi.
5 (a'lo) baho:
 Xulosa va qaror qabul qilish;

		biriga bog'liqligi. Go'sht xonasidagi sanitariya so'yish bo'limi. Karantin bo'limi. Izolyator bo'limi. 1.1.3. Asosiy sexni boshqa sexlar bilan bog'liqligi. Go'sht korxonasini suv bilan ta'minlash. Go'sht korxonasidan chiqadigan oqindi suvlarni zararsizlantirish yo'llari. 1.1.4. So'yiladigan hayvonlarni go'sht korxonalariga qabul qilish, hushsizlantirish, qonsizlantirish, va so'yilgan hayvon tanasini qayta ishlash.	
2-modul. Sut va sut mahsulotlarni veterinariya sanitariya ekspertizasi			
2.1	Sut tovar fermalarida sutni sanitariya gigiyenik talablari va kimyoviy tarkibi	2.1.1. Barcha turdagi sut yetishtiradigan fermalarda sut olish gigiyenasi. Sutni qayta ishlash. Turli hayvonlar sutining farqlari. 2.1.2. Sutning kimyoviy tarkibi. Sut olish jarayonida sut sog'uvchilarini sanitariya gigiyenasi. Sut bezini tozalash to'g'risida tushuncha. 2.1.3. Sutni bakteriosid va bakteriostatik xususiyati to'g'risida tushuncha. Bakteriosid fazasi to'g'risida tushuncha.	2
3-modul. O'simlik oziq-ovqat mahsulotlari va asalni veterinariya sanitariya ekspertizasi			
3.1	O'simlik mahsulotlarini veterinariya ekspertizasi oziq-ovqat va asalni sanitariya	3.1.1. Oziq-ovqat mahsulotlarini dehqon bozoriga olib kelishga bo'lgan talab va ekspertiza qilish tartibi (go'sht, sut, o'simlik mahsulotlarini). 3.1.2. Namuna olish va tekshirish tartibi. Asal va uning ko'rsatkichlari. Asalni veterinariya sanitariya ekspertizasi. 3.1.3. Asalni kimyoviy tarkibi. Asalni kimyoviy va fizikaviy xususiyatlari. Tabiiy asaldan sohtalashtirilgan asalni ajratish usullari.	2
Jami:			6

4.2. "Veterinariya sanitariya ekspertizasi" fanidan rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

Amaliy mashg'ulotlarning:			
№	mavzulari	rejasi	Soat
1.	Har xil ta'mga va hidga ega bo'lgan moddalarni	1.1. Sinovchilarni tanlash usullari mohiyati va o'tkazish tartibi.	2

	kamchiligini aniqlash (sinovchilarni tanlash)	1.2. Har xil ta'mlarning asosiy farqini ajrata bilishlik qobiliyatini aniqlash. 1.3. Alohida-alohida tayyorlangan turli miqdordagi ta'mli moddalarni sezish qobiliyatini aniqlash. 1.4. Ta'mlarning farqini ajrata bilishlik qobiliyatini aniqlash.	
2.	Go'shtni yangiligini aniqlash (organoleptik va laboratoriya usullarida)	2.1. Turli go'shtlarni yangiligini aniqlashda, namuna olish usullari. 2.2. Go'shtni yangiligini aniqlash tartibi. 2.3. Vodorod ioni miqdorini aniqlash orqali go'shtni yangiligini aniqlash.	2
3.	Sutning tozaligi va zichligini ariometrik va piknometrik usulda aniqlash	3.1. Sutning tozaligi va zichligini aniqlash tartibi. 3.2. Sutning zichligini aerometr yordamida aniqlash	2
4.	Sutda mikroorganizmlar miqdorini aniqlash (reduktaza va rezozurin namunasi)	4.1. Reduktaza namunasini qo'yish orqali sutdagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlash. 4.2. Sutdagi mikroorganizmlar miqdorini aniqlashni tezkor usullari.	2
5.	Asalni laborator usulda tekshirish	5.1. Asalni refraktometr yordamida aniqlash. 5.2. Spirtli reaksiya yordamida tekshirish. 5.3. Oxakli reaksiya yordamida tekshirish.	2
6.	Asalni qalbakilashtirilganligini aniqlash.	6.1. Asalning kimyoviy tarkibi. 6.2. Asal tarkibidagi diastaza miqdorini aniqlash.	2
7.	Tuxum va tuxum mahsulotlari tovarshunosligi va ekspertizasi	7.1. Tuxumlarning sifat ekspertizasi. 7.2. Tuxum mahsulotlarini sifat ekspertizasi. 7.3. Tuxum va tuxum mahsulotlari tovarshunosligi va ekspertizasi	2
Jami:			14

VI. "Veterinariya sanitariya ekspertizasi" fanidan rejalashtirilgan talabalar mustaqil ta'limining kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Amalga oshirish mexanizmi	Hajmi (soatda)
1	Kasal va emlangan hayvonlarni so'yishdan oldin veterinariya dasturlariga amal qilish.	Adabiyotlardan foydalanib referat tayyorlash	6

2	Go'sht korxonalari haqida umumiy tushuncha.	Go'sht korxonalari bilan tanishib taqdimot tayyorlash	6
3	Shartli yaroqli go'sht va go'sht mahsulotlarini zararsizlantirish usullari	Topshiriqlarni bajarib, og'zaki topshirish	6
4	Buzoq, cho'chqa va quyonna tanasini qayta ishlash.	Go'sht korxonalari bilan tanishib referat tayyorlash	6
5	Saramas bilan kasallangan cho'chqalarning go'shtini qayta ishlashda qo'llaniladigan tadbiri choralar.	Adabiyotlardan foydalanib og'zaki topshirish	6
6	Sut mahsulotlarini texnologiyasi va ekspertizasi.	Adabiyotlardan foydalanib taqdimot tayyorlash	6
7	Turli hayvonlar sutini veterinariya sanitariya ekspertizasi.	Sut korxonalari bilan tanishib referat tayyorlash	6
8	Tuzlangan sabzovotlarni sanitariya jihatidan tekshirish.	Sut korxonalari bilan tanishib referat tayyorlash	6
9	Zamburug'larning sanitariya ekspertizasi.	Sut korxonalari bilan tanishib referat tayyorlash	6
10	Sariyog'ni veterinariya sanitariya ekspertizasi.	Topshiriqlarni bajarib, og'zaki topshirish	6
11	Yuqumsiz kasalliklarni veterinariya sanitariya ekspertizasi.	Adabiyotlardan foydalanib og'zaki topshirish	6
12	Limfa sistemasi va uning go'sht ekspertizasidagi ahamiyati.	Topshiriqlarni bajarib, og'zaki topshirish	6
13	O'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi.	Sut korxonalari bilan tanishib referat tayyorlash	6
14	Bozorlarda veterinariya sanitariya nazorati va oziq ovqat mahsulotlarini tekshirishga oid dasturlar.	Bozorlardagi laboratoriyalar bilan tanishib referat tayyorlash	6
15	Zaxarlangan hayvonlardan olingan mahsulotlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasi	Topshiriqlarni bajarib, og'zaki topshirish	4
16	Baliq va baliq mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi	Adabiyotlardan foydalanib referat tayyorlash	4
17	Qishloq xo'jalik hayvonlarini so'yishdan keyin olingan xom ashyo mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi	Adabiyotlardan foydalanib taqdimot tayyorlash	4
18	Go'sht va go'sht mahsulotlarini konservatsiyalash texnologiyasi, gigiyenasi va ekspertizasi	Adabiyotlardan foydalanib referat tayyorlash	4
Jami:			100